

TINCHLIK DAVRIDA SODIR ETILGAN EKOTSID UCHUN JAVOBGARLIK MASALASI

Ibragimova Shahlo Bazarbayevna

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi talabasi

+998900310227

Annotatsiya:

Maqolada tinchlik davrida sodir etilgan ekotsid uchun jinoiy javobgarlik masalasi xalqaro huquq va milliy qonunchilik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Muallif Rim statutidagi normalarning urush va tinchlik davri uchun assimetrik tabiati, postsovet davlatlarida ekotsidning kriminalizatsiyasi tajribasi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi konteksti bilan bog'liq polemika yuritadi. Orol fojiasi konseptual misol sifatida tahlilga tortilgan. Xulosa o'rnida muallif O'zbekiston Jinoyat kodeksiga ekotsid moddasini kiritish bo'yicha taklif beradi.

Kalit so'zlar: ekotsid, ekologik xavfsizlik, atrof-muhit huquqi, jinoiy javobgarlik, tinchlik davri, Rim statuti, Orol dengizi, postsovet huquq tizimi, sog'lom atrof-muhitga bo'lgan huquq.

Yigirma birinchi asrning chorak qismi tugab borayotgan ushbu davrda atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar miqyosi insoniyatning yashash imkonini xavf ostiga qo'yadigan darajaga yetdi. Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, suv resurslarining qisqarishi va tuproqning degradatsiyasi bularning barchasi alohida, izolyatsiyada ko'rilgan ekologik muammolar emas, balki bir-biriga uzviy bog'liq, sistemali xarakterga ega bo'lgan global tahdiddir. Aynan shu kontekstda yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida shakllangan "ekotsid" tushunchasi yangidan dolzarblashib, xalqaro huquq sohasida o'tkir polemikaning markaziga aylandi.

"Ekotsid" atamasi 1970-yilda amerikalik biolog Artur Galston tomonidan Vashingtonda o'tkazilgan Urush va milliy mas'uliyat konferensiyasida birinchi marta huquqiy-ilmiy atama sifatida kirgan. Galston Vyetnam urushi davrida AQSh harbiy kuchlari tomonidan qo'llanilgan Agent Orange defoliantining ekotizimga yetkazgan zararini tavsiflash uchun yunoncha "oikos" (uy, makon) va lotincha "cide" (o'ldirish) so'zlarini birlashtirib, yangi tushunchani taklif etgan¹. Keyinchalik bu g'oya 1972-yildagi Stokgolm konferensiyasida Shvetsiyaning sobiq Bosh vaziri Olof Palme tomonidan ko'tarib chiqildi va atrof-muhit huquqi diskursida o'z o'rnini topdi².

Ekotsidni mustaqil xalqaro jinoyat sifatida tan olishni eng izchil tarzda himoya qilgan ingliz advokati Polli Higgins edi. Uning "Eradicating Ecocide" asarida ekotsid bu insonlar yashashiga zarur bo'lgan ekotizimga shu darajadagi katta zarar yetkazishki, natijada o'sha hududdagi aholining tinch holda yashash huquqi sezilarli darajada cheklanadi deb ta'riflangan³. Bu konseptual harakatlar 2021-yilning iyun oyida amaliy huquqiy yutuqqa olib keldi. "Stop Ecocide Foundation" tashkiloti tomonidan tuzilgan Mustaqil Ekspertlar Paneli (Independent Expert Panel for the Legal Definition of Ecocide), Filipp Sands QC va Dior Fal Sou ekotsidning quyidagi huquqiy ta'rifini ishlab chiqdi "ekotsid bu atrof-muhitga jiddiy va keng ko'lamlı yoki uzoq muddatli zarar yetkazilishining sezilarli ehtimoli

¹Zierler D. The Invention of Ecocide: Agent Orange, Vietnam, and the Scientists Who Changed the Way We Think About the Environment. – Athens: University of Georgia Press, 2011. – 23–28-betlar.

²Falk R. A. Environmental Warfare and Ecocide – Facts, Appraisal, and Proposals // Bulletin of Peace Proposals. – 1973. – Vol. 4, № 1. – P. 80–96.

³Higgins P. Eradicating Ecocide: Laws and Governance to Prevent the Destruction of our Planet. – London: Shephard-Walwyn Publishers, 2010. – P. 63.

mavjudligini bilgan holda sodir etilgan g'ayriqonuniy yoki betartib harakatlardir"⁴. Ekspert paneli mazkur ta'rifni Rim statutining 5-moddasiga yangi bandni qo'shish orqali Xalqaro Jinoyat Sudi (XJS) yurisdiksiyasiga kiritishni taklif etgan.

Mavjud xalqaro jinoyat huquqi tizimida ekotsid bilan eng yaqin masofada turgan norma Rim statutining 8(2)(b)(iv) moddasidir. Mazkur modda harbiy harakatlar davomida tabiiy muhitga "keng, uzoq muddatli va jiddiy" zarar yetkazilishini urush jinoyati sifatida belgilaydi⁵. Lekin bu yerda muhim ikki cheklov mavjud. Birinchidan, modda faqat xalqaro qurolli mojarolar davriga taalluqli, ikkinchidan, modda mutanosiblik testini talab qiladi ya'ni atrof-muhitga yetkazilgan zarar kutilayotgan harbiy ustunlikka mutanosib emasligi isbotlanishi shart. Aynan shu yuqori chegara sababli mazkur norma na 1991-yildagi Fors ko'rfazi urushidagi neft yong'inlaridan keyin, na 2003-yildagi Iroq mojarosidagi ekologik halokatlar yuzasidan, na so'nggi yillardagi qurolli mojarolar yuzasidan amaliy qo'llanmagan⁶.

Bu modda tinchlik davrini umuman o'z ichiga olmaydi. Vaholanki, hozirgi kunda dunyodagi eng katta ekologik halokatlarning aksariyati harbiy mojarolardan tashqarida, tinch iqtisodiy faoliyat kontekstida sodir bo'lmoqda. O'rmonlarning yo'qotilishi, neft to'kilishi, kimyoviy chiqindilarning daryolarga oqizilishi, yer osti suvlarining ortiqcha tortilishi va eng asosiysi, aholini tabiiy yashash imkoniyatidan ayirayotgan iqlim o'zgarishi⁷. Aynan shu paradoks ya'ni xalqaro huquqning urush davrini ekologik nuqtai nazardan tartibga solishga urinishi va tinchlik davrini esa amalda jinoiy javobgarlik mexanizmidan tashqarida qoldirishi tinchlik davri ekotsidi instituti bo'yicha talab tug'dirayotgan asosiy konseptual asosdir.

Sobiq ittifoq huquqiy makonida ekotsid masalasiga yondashuv juda qiziqarli manzara taqdim etadi. Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng aksariyat sobiq respublikalar o'z jinoyat kodekslarida ekotsidni mustaqil tarkib sifatida belgiladilar. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 358-moddasi ekotsidni o'simlik yoki hayvonot dunyosini ommaviy ravishda yo'q qilish, atmosfera yoki suv resurslarini zaharlash hamda ekologik halokatga olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa harakatlar deb belgilaydi va sanksiya sifatida 12 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum etishni nazarda tutadi⁸. Ukraina Jinoyat kodeksining 441-moddasi, Belarus Jinoyat kodeksining 131-moddasi, Qozog'iston Jinoyat kodeksining 169-moddasi, Tojikiston Jinoyat kodeksining 400-moddasi va Qirg'iziston, Moldova hamda Armaniston jinoyat qonunlari ham aynan shu modelni qabul qilgan⁹. Diqqatga molik jihat bu modellar ekotsidni ham urush davri, ham tinchlik davrida sodir etiladigan jinoyat sifatida belgilaydi. Boshqacha aytganda, Sobiq ittifoq davlatlari doktrinasida xalqaro huquq miqyosida hali yetarlicha rivojlanmagan bo'lsa-da, milliy darajada amalda mavjud institutga aylandi.

Bu yerda muhim ilmiy savol qo'yilishi tabiiy, agar Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar ular bilan O'zbekiston bir xil mintaqaviy ekotizimda bo'la turib, o'z qonunchiligida ekotsidni jinoyat sifatida belgilagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bunday tarkibning mavjud emasligi qanday tushuntirilishi mumkin?

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi ekologiya sohasidagi jinoyatlarni alohida bobda jamlaydi. Ushbu bob doirasida atrof-muhit muhofazasi qoidalarini buzish, suv va atmosfera havosini

⁴Independent Expert Panel for the Legal Definition of Ecocide. Commentary and Core Text. – Stop Ecocide Foundation, June 2021. – P. 5. URL: <https://www.stopecocide.earth/legal-definition>

⁵Rome Statute of the International Criminal Court (qabul qilingan 1998-yil 17-iyul, kuchga kirgan 2002-yil 1-iyul), 2187 UNTS 90, art. 8(2)(b)(iv).

⁶Independent Expert Panel for the Legal Definition of Ecocide. Commentary and Core Text. – Stop Ecocide Foundation, June 2021. – P. 6–8

⁷Yana qarang: Mehta J., Merz P. Ecocide – A New Crime against Peace? // Environmental Policy and Law. – 2015. – Vol. 45, № 1. – P. 3–7.

⁸Уголовный кодекс Российской Федерации от 13.06.1996 № 63-ФЗ (с послед. изм.), статья 358 (Экоцид).

⁹Кримінальний кодекс України від 05.04.2001 № 2341-III, ст. 441; Уголовный кодекс Республики Беларусь от 09.07.1999 № 275-3, ст. 131; Қазақстан Республикасының Қылмыстық кодексі (3.07.2014), 169-бап; Уголовный кодекс Республики Таджикистан от 21.05.1998 № 574, ст. 400.

ifloslantirish, hayvonot va o'simliklar dunyosi obyektlarini noqonuniy ravishda zararlash kabi tarkiblar mavjud¹⁰. Biroq ekotsid mustaqil tarkib sifatida ushbu kodeksda ko'zda tutilmagan. Bu O'zbekistonni Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari orasida o'ziga xos istisno qiladi.

Bu istisno huquqiy bo'shliq qancha jiddiyligini tushunish uchun Orol dengizi fojiasini eslatib o'tish kifoya. Sovet rejasiga binoan o'tkazilgan paxta yakkahokimligi siyosati natijasida Amudaryo va Sirdaryoning suvlari Orolga yetib kelmaydigan bo'lib qoldi. Natijada, ilgari dunyodagi to'rtinchi yirik ko'l hisoblangan Orol dengizi 1960-yildagi taxminan 68 ming kvadrat kilometr maydondan hozirgi paytda asl maydonining juda kichik foiziga qisqardi. Sobiq dengiz tubida shakllangan Orolqum cho'li million gektarlab maydonni egallamoqda. Mintaqada onkologik kasalliklar va bolalar o'limi darajasi keskin oshdi, qishloq xo'jaligi yer maydonlarining sho'rланishi xavfli darajaga yetdi¹¹. BMT Bosh Assambleyasi 2018-yil 28-mayda Orol dengizi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb tan olib, mazkur fojiani jahon hamjamiyatining diqqat-e'tiborini talab qiluvchi insoniy va ekologik xavfsizlik masalasi sifatida belgiladi¹².

Mana shu yerda haqiqiy huquqiy paradoks namoyon bo'ladi. Agar bunday miqyosdagi atrof-muhit halokati harbiy mojaro davrida sodir etilgan bo'lsa, u Rim statutining 8(2)(b)(iv) moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi mumkin edi. Tinchlik davrida sodir etilganligi sababli esa hech qaysi xalqaro yoki milliy jinoyat-huquqiy tarkibga muvofiq kelmaydi. Albatta, ko'p yil ilgari yoxud Sovet davrida sodir bo'lgan voqealarga retroaktiv ravishda jinoyat normasini qo'llash mumkin emasligi tushunarli. Lekin masala shu bilan tugamaydi, bugungi kunda O'zbekiston o'zining yangi ekologik siyosatini shakllantirayotgan ekan, kelajakda mumkin bo'lgan ekologik muammolar uchun javobgarlik mexanizmini huquqiy bo'shliqsiz holatda saqlash maqsadga muvofiqmi degan savol o'tkir tarzda turibdi.

Bu yerda O'zbekistonning konstitutsiyaviy doktrinasi ham diqqatga sazovor. 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan Konstitutsiyaning yangi tahriri atrof-muhit huquqlarini sezilarli darajada mustahkamladi. Har kimning qulay atrof-muhitga, atrof-muhit holati to'g'risida ishonchli axborotga ega bo'lish huquqi e'tirof etildi¹³. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PF-81-sonli Farmoni ekologik jinoyatlar toifasini og'irroq darajaga ko'tarish bo'yicha tegishli vazirliklarga ko'rsatma berdi¹⁴. Mazkur me'yoriy hujjatlar O'zbekistonning ekologik javobgarlik tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan strategiyasini namoyon etadi. Biroq mazkur farmonda ko'zda tutilgan choralar bu mavjud ekologik jinoyat tarkiblarini og'irlashtirish choralaridir, ekotsid deb nomlanuvchi mustaqil tarkibni kiritish masalasi bunda ko'zda tutilmagan.

Tinchlik davrida sodir etilgan keng ko'lamlı ekologik halokatlar uchun mustaqil jinoyat tarkibining (ekotsid) mavjud bo'lmasligi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi konseptual va aksiologik nuqsondir. Biroq biz ushbu pozitsiyaga qarshi keltirilishi mumkin bo'lgan e'tirozlarni ham tahlil qilishni vazifa deb hisoblaymiz.

Birinchi e'tiroz – mavjud ekologik jinoyat tarkiblari yetarlidir, qo'shimcha tarkib qo'shilishi qonun yagonaligi printsipiga zid kelishi mumkin. Mazkur pozitsiyaning kuchli tomoni shundaki, Jinoyat kodeksining ekologiya bobini chuqurlashtirish va sanksiyalarni og'irlashtirish ham yetarli reaksiya

¹⁰O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2026-y., 03/26/1138/0397-son

¹¹UNEP. The Aral Sea: A Disaster in the Making. – UN Environment Programme, 2014; shuningdek qarang: Micklin P. The Aral Sea Disaster // Annual Review of Earth and Planetary Sciences. – 2007. – Vol. 35. – P. 47–72.

¹²UN Secretary-General's Report on cooperation between the United Nations and the International Fund for Saving the Aral Sea, A/74/265 (2019)

¹³O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

¹⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PF-81-sonli "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolati davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.03.2026-y., 06/26/46/0290-son

bo'lishi mumkin. Lekin bu yondashuv ekotsidning huquqiy tabiatiga to'liq mos kelmaydi. Genotsid umumiy odam o'ldirishdan farq qilganidek, ekotsid ham oddiy ekologik huquqbuzarliklardan farq qiladi bu sifat farqi normal Jinoyat kodeksi tarkibida o'z aksini topishi lozim.

Ikkinchi e'tiroz – ekotsidning betartib (wanton) elementi bilan bog'lanishi mens rea (jinoiy ayb) sohasida qiyin doktrinal masalalar tug'diradi chunki muayyan korporativ qaror qabul qilinayotganda, qaror qabul qiluvchilar zararining aniq miqyosi va shaklini bilmasliklari mumkin¹⁵. Ya'ni ayb shartlari ataylab yuqori darajada o'rnatilgan, oddiy beparvolik yoki ehtiyotsizlik bu yerda yetarli emas.

Uchinchi e'tiroz – ekotsidning jinoyatlik darajasi iqtisodiy rivojlanishni cheklab qo'yishi mumkin axir, har qanday yirik infratuzilma loyihasi atrof-muhitga ma'lum bir ta'sir ko'rsatadi. Ammo bu argument diqqat bilan ko'rib chiqilganda kuchini yo'qotadi. Ekotsidning huquqiy ta'rifi jiddiy hamda keng ko'lamli yoki uzoq muddatli zarar darajasini talab qiladi odatdagi infratuzilma loyihalarining ta'siri bu chegaraga yetmaydi. Bundan tashqari, kerakli ekologik ekspertizalar va ruxsatlardan keyin, qonunchilik talablarini hisobga olib amalga oshirilgan harakat g'ayriqonuniy emas, demak ekotsid tarkibiga to'g'ri kelmaydi. Aksincha, ekotsid moddasining mavjudligi uzoq muddatli investitsion barqarorlikni kafolatlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, xalqaro huquqning urush va tinchlik davri o'rtasidagi assimetrik munosabati tinchlik davri ekologik halokatlari uchun jinoiy javobgarlik mexanizmida muhim bo'shliqni saqlab qolmoqda. Ikkinchidan, postsovet huquqiy makonida ekotsidning kriminalizatsiyasi keng tarqalgan bo'lib, O'zbekiston bundan istisno hisoblanadi. Uchinchidan, Orol fojiasi va boshqa ekologik xavf-xatarlar konteksi bo'yicha O'zbekistonda ekotsid uchun mustaqil tarkibning kiritilishi qonuniy jihatdan asoslidir.

Tinchlik davri ekotsidi uchun javobgarlikning huquqiy mexanizmini ishlab chiqish bu shunchaki texnik yuridik vazifa emas. Bu bizning tabiat bilan munosabatimizni qayta ko'rib chiqish, kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatimizni e'tirof etish va eng asosiysi, O'zbekiston Konstitutsiyasi e'tirof etgan sog'lom atrof-muhitga bo'lgan asosiy inson huquqini real va samarali himoyaladigan huquqqa aylantirishdir. Atrof-muhit huquqi va inson huquqlari o'rtasidagi uzviy bog'lanish bu zamonaviy xalqaro huquqning eng muhim tendensiyasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PF-81-sonli Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni.
4. Rome Statute of the International Criminal Court 2187 UNTS 90.
5. Уголовный кодекс Российской Федерации от 13.06.1996 № 63-ФЗ.
6. Кримінальний кодекс України від 05.04.2001 № 2341-III.
7. Уголовный кодекс Республики Беларусь от 09.07.1999 № 275-3.
8. Қазақстан Республикасының Қылмыстық кодексі (3.07.2014).
9. Уголовный кодекс Республики Таджикистан от 21.05.1998 № 574.

¹⁵Independent Expert Panel for the Legal Definition of Ecocide. Commentary and Core Text. – Stop Ecocide Foundation, June 2021. – P. 9

10. Independent Expert Panel for the Legal Definition of Ecocide. Commentary and Core Text. Stop Ecocide Foundation, June 2021. URL: <https://www.stopecocide.earth/legal-definition>.
11. Higgins P. Eradicating Ecocide: Laws and Governance to Prevent the Destruction of our Planet. London: Shephard-Walwyn Publishers, 2010. 188 p.
12. Zierler D. The Invention of Ecocide: Agent Orange, Vietnam, and the Scientists Who Changed the Way We Think About the Environment. Athens: University of Georgia Press, 2011. 264 p.
13. Falk R. A. Environmental Warfare and Ecocide Facts, Appraisal, and Proposals // Bulletin of Peace Proposals. 1973. Vol. 4, № 1. P. 80–96.
14. Mehta J., Merz P. Ecocide A New Crime against Peace? // Environmental Policy and Law. 2015. Vol. 45, № 1. P. 3–7.
15. Micklin P. The Aral Sea Disaster // Annual Review of Earth and Planetary Sciences. 2007. Vol. 35. P. 47–72.
16. UNEP. The Aral Sea: A Disaster in the Making. UN Environment Programme, 2014.
17. BMT Bosh Assambleyasining 72/315-rezolyutsiyasi
18. Stockholm Declaration on the Human Environment adopted at the United Nations Conference on the Human Environment, June 16, 1972, UN Doc. A/CONF.48/14/Rev.1.